Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyalı bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abduvahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	



TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARNING O'RNI

Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
„Roman-german tillari“ kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0007-9610-4355

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tilini o'qitish jarayonida tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni va ahamiyati ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tinglab tushunish retseptiv nutq faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning fonetik, leksik va pragmatik ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqotda autentik materiallarning (audioyozuvlar, podkastlar, intervyular, videolavhalar, real kommunikativ nutq namunalari) didaktik imkoniyatlari, ularning o'quv motivatsiyasiga, madaniyatlararo kompetensiyaga va kommunikativ faollikka ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, an'anaviy sun'iy o'quv materiallari bilan autentik resurslarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, autentik materiallardan tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda foydalanish tinglab tushunish jarayonini real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtiradi hamda o'quvchilarning nutqni tez va to'g'ri idrok etish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Maqolada samarali metodik tavsiyalar ham ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, autentik materiallar, retseptiv kompetensiya, kommunikativ yondashuv, chet tilini o'qitish, nutq faoliyati, madaniyatlararo kompetensiya, didaktik vositalar, motivatsiya.

Abstract: This article examines the role of authentic materials in developing listening comprehension competence in foreign language teaching from a scientific and methodological perspective. Listening is considered a fundamental component of receptive speech activity that contributes to the development of phonetic, lexical, and pragmatic skills. The study explores the didactic potential of authentic materials such as audio recordings, podcasts, interviews, video materials, and real-life communicative speech samples, as well as their impact on learners' motivation, intercultural competence, and communicative engagement. A comparative analysis of traditional instructional materials and authentic resources is also conducted. The findings indicate that systematic and methodologically grounded use of authentic materials brings the learning process closer to real communicative situations and significantly improves learners' ability to comprehend spoken language accurately and efficiently. The article also provides practical methodological recommendations for effective implementation.

Key words: listening comprehension, authentic materials, receptive competence, communicative approach, foreign language teaching, speech activity, intercultural competence, didactic tools, motivation.

Аннотация: В данной статье научно-методически анализируется роль аутентичных материалов в развитии компетенции аудирования при обучении иностранным языкам. Аудирование рассматривается как важнейший компонент рецептивной речевой деятельности, способствующий формированию фонетических, лексических и прагматических навыков обучающихся. В исследовании раскрываются дидактические возможности аутентичных материалов (аудиозаписи, подкасты, интервью, видеоматериалы, образцы реальной коммуникации), а также их влияние на учебную мотивацию, межкультурную компетенцию и коммуникативную активность студентов. Проводится сравнительный анализ традиционных учебных текстов и аутентичных ресурсов. Результаты исследования показывают, что систематическое и методически обоснованное использование аутентичных материалов способствует приближению учебного процесса к реальным коммуникативным условиям и значительно повышает уровень понимания устной речи. В статье также предлагаются практические методические рекомендации.

Ключевые слова: аудирование, аутентичные материалы, рецептивная компетенция, коммуникативный подход, обучение иностранным языкам, речевая деятельность, межкультурная компетенция, дидактические средства, мотивация.



KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro akademik va professional aloqalarning kengayishi chet tillarini samarali o'qitish masalasini zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda chet tilini o'qitish metodikasining markaziy maqsadi sifatida e'tirof etilmoqda. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan tinglab tushunish kompetensiyasi esa real muloqot jarayonida axborotni qabul qilish, tahlil qilish va mazmunan to'g'ri talqin etish imkonini beruvchi asosiy retseptiv ko'nikma hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kundalik kommunikatsiya jarayonida axborotning katta qismini aynan eshitish orqali qabul qiladi. Shunga qaramay, amaliyotda tinglab tushunish ko'nikmasi ko'pincha ikkilamchi o'rinda qolib, grammatika va o'qish ko'nikmalariga nisbatan kamroq e'tibor qaratiladi. Natijada o'quvchilar real nutq tezligi, tabiiy talaffuz, intonatsiya, dialektal xususiyatlar va spontan nutq elementlarini idrok etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularning kommunikativ faoliyatida psixologik to'siqlar va nutqiy noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Zamonaviy metodik yondashuvlarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun o'quv jarayonini real kommunikativ vaziyatlarga maksimal darajada yaqinlashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, autentik materiallar – ya'ni ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan real kommunikativ maqsadda yaratilgan audio va video resurslar – muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Podkastlar, intervyular, yangiliklar dasturlari, ijtimoiy tarmoq videolari, film va serial parchalarida til tabiiy fonetik xususiyatlari, spontan nutq shakllari, madaniy kontekst va pragmatik elementlar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Bu esa o'quvchilarda nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturni va pragmatik kompetensiyani ham rivojlantirish imkonini beradi. An'anaviy darslik materiallari ko'pincha sun'iy tarzda soddalashtirilgan, grammatik jihatdan "tozalangan" va real nutqdagi tabiiy elementlardan xoli bo'ladi. Bunday materiallar boshlang'ich bosqichda ma'lum darajada foydali bo'lsa-da, yuqori bosqichlarda o'quvchilarni real kommunikativ muhitga tayyorlashda yetarli samara bermaydi. Aksincha, autentik materiallardan tizimli va metodik asosda foydalanish o'quvchilarning eshitish sezgirligini, tezkor axborot qayta ishlash qobiliyatini va nutqni kontekst asosida tushunish malakasini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bois mazkur tadqiqotda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni ilmiy-metodik jihatdan asoslab beriladi, ularning didaktik imkoniyatlari va ta'lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy raqamli muhitda autentik resurslarga keng imkoniyatlar mavjud bo'lishiga qaramay, ularni maqsadli va metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish masalasi hali ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi chet tilini o'qitish metodikasida markaziy o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tinglab tushunishni oddiy eshitish jarayoni emas, balki murakkab psixolingvistik va kognitiv faoliyat sifatida talqin etadi. Xususan, J. Harmer o'zining metodik izlanishlarida tinglab tushunish ko'nikmasi o'quvchilarning kommunikativ tayyorgarligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, darsliklarda sun'iy ravishda soddalashtirilgan audio matnlar o'quvchini real nutq muhitiga to'liq tayyorlay olmaydi, chunki ular tabiiy nutq tezligi, reduksiya va spontanlik elementlarini yetarlicha aks ettirmaydi. Shu sababli u autentik materiallardan bosqichma-bosqich foydalanishni tavsiya etadi. Harmerning yondashuvi nazariy jihatdan asosli bo'lsa-da, unda autentik materiallarni tanlash mezonlari va ularning samaradorligini baholash mexanizmlari batafsil ishlab chiqilmagan.^[1]

Ikkinchi muhim ilmiy manba sifatida N. Andersonning tinglab tushunish strategiyalariga oid tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. U tinglab tushunish jarayonini "bottom-up" va "top-down" strategiyalar uyg'unligi asosida izohlaydi hamda o'quvchilarni strategik tinglashga o'rgatish zarurligini asoslaydi. Anderson autentik materiallar o'quvchilarning kontekstual taxmin qilish, asosiy g'oyani ajratish va selektiv tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishini ilmiy tajribalar orqali ko'rsatib bergan. Biroq uning tadqiqotlari asosan ingliz tili auditoriyasiga qaratilgan bo'lib, boshqa xorijiy tillar, xususan, nemis yoki boshqa Yevropa tillari kontekstida metodik moslashtirish masalasi yetarli darajada ochilmagan.^[2]

Mahalliy olimlardan biri sifatida Sh. Safarovaning chet tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga oid ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Olimaning tadqiqotlarida retseptiv ko'nikmalarni rivojlantirishda interaktiv metodlar, dialogik mashqlar va multimedia vositalarining ahamiyati asoslab berilgan. Safarova tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda o'quvchining faol ishtiroki va motivatsiyasi hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi. Biroq uning ilmiy ishlari ko'proq umumiy metodik tavsiyalar bilan cheklanib, aynan autentik materiallarni tizimli integratsiya qilish modeli va ularning samaradorligini o'lchash mezonlari yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan.^[3]

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy adabiyotlarda autentik materiallarning nazariy asoslari va strategik yondashuvlari keng yoritilgan bo'lsa, mahalliy izlanishlarda ko'proq umumiy pedagogik yondashuv ustunlik qiladi. Ammo zamonaviy raqamli muhit sharoitida autentik materiallarni tanlash, ularni darajaviy moslashtirish, o'quvchilarning psixologik tayyorgarligi va lingvistik bazasini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich qo'llash masalasi hali ham kompleks yondashuvni talab qiladi. [5]

Muallif sifatida shuni ta'kidlash joizki, tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallardan foydalanish faqatgina real nutq namunalari darsga olib kirish bilan cheklanmasligi kerak. Asosiy e'tibor ularni metodik jihatdan puxta rejalashtirish, maqsadli topshiriqlar bilan boyitish va natijadorlikni aniq mezonlar asosida baholashga qaratilishi lozim. Ayniqsa, O'zbekiston ta'lim tizimida kredit-modul tizimi va kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi sharoitida autentik materiallarni tizimli ravishda integratsiya qilish metodik modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg'unligi ta'minlandi. Avvalo, muammoning ilmiy asoslarini aniqlash uchun tahliliy va qiyosiy-taqqoslash usullari qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari o'rganilib, autentik hamda an'anaviy (sun'iy yaratilgan) o'quv materiallarining didaktik imkoniyatlari o'zaro taqqoslandi. Qiyosiy tahlil jarayonida tinglab tushunish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar, nutq tezligi, leksik murakkablik, kontekstual boylik va madaniy komponent mavjudligi mezon sifatida belgilandi. Natijada autentik materiallarning real kommunikativ vaziyatlarga yaqinligi va strategik tinglash ko'nikmalarini faollashtirishdagi ustunligi aniqlashtirildi.

Empirik bosqichda esa tajriba-sinov metodi qo'llanildi. Tadqiqot oliy ta'lim muassasasining chet tili yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar shartli ravishda nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida an'anaviy audio matnlar asosida dars tashkil etilgan bo'lsa, tajriba guruhida autentik materiallar (intervyular, podkastlar, videolavhalar) asosida topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. [6]

Natijalarni aniqlash maqsadida diagnostik testlar, kuzatish va so'rovnomalar usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilindi. Yakuniy ko'rsatkichlar tajriba guruhida tinglab tushunish darajasi, asosiy mazmunni ajratish va detallarni aniqlash ko'nikmalari sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda autentik materiallarning tinglab tushunish kompetensiyasiga ta'sirini aniqlash maqsadida ikki oy davomida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda jami 48 nafar talaba ishtirok etdi. Ular teng ravishda nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Dastlabki bosqichda har ikkala guruhda tinglab tushunish darajasini aniqlash uchun diagnostik pre-test o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 56 %, tajriba guruhiniki esa 55 % ni tashkil etdi. Bu esa guruhlarining boshlang'ich tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil ekanini tasdiqladi.

Tajriba jarayonida nazorat guruhida an'anaviy, darslik asosidagi soddalashtirilgan audio matnlar bilan ishlash davom ettirildi. Tajriba guruhida esa autentik materiallar, intervyular, podkastlar, videolavhalar va real nutq namunalari asosida maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi qo'llanildi. Dars jarayonida asosiy mazmunni aniqlash, detallarni ajratish, kontekst asosida ma'no chiqarish va selektiv tinglash strategiyalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yakuniy bosqichda o'tkazilgan post-test natijalari sezilarli farqni ko'rsatdi. Nazorat guruhida o'rtacha ko'rsatkich 64 % ni tashkil etib, o'sish 8 % ga teng bo'ldi. Tajriba guruhida esa o'rtacha natija 78 % ga yetdi va o'sish 23 % ni tashkil etdi. Statistik jihatdan bu farq muhim ko'rsatkich hisoblanadi, chunki autentik materiallardan foydalangan guruhda natija deyarli uch barobar yuqori o'sishni namoyon etdi. [11;56]

Natijalar dinamikasini diagramma ko'rinishida tahlil qilganda, tajriba guruhida ko'rsatkichlar keskin yuqoriga ko'tarilganini, nazorat guruhida esa o'sish nisbatan sust va barqaror xarakterga ega ekanini ko'rish mumkin. Bu holat autentik materiallarning real nutq tezligi va tabiiy kommunikativ muhitni aks ettirishi bilan izohlanadi. Sifat tahlili maqsadida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari ham ijobiy tendensiyani tasdiqladi. Tajriba guruhidagi talabalarning aksariyati dars jarayonida qiziqish va motivatsiya oshganini, real nutqni tushunish qobiliyati rivojlanganini va kontekst orqali ma'no chiqarish ko'nikmasi mustahkamlanganini qayd etdi. Ayniqsa, nutq tezligiga moslashish va asosiy g'oyani tez ajratish ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatildi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Xususan, leksik zaxirasi yetarli bo'lmagan talabalar dastlab autentik materiallarni qabul qilishda qiyinchilikka duch kelishdi. Ba'zi hollarda material murakkabligi o'quvchining psixologik ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa autentik materiallarni tanlashda darajaviy moslik va metodik bosqichlilik tamoyillariga qat'iy amal qilish zarurligini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, autentik materiallar tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular o'quvchilarga tabiiy nutqni, turli aksentlar va talaffuzlarni tushunishni o'rgatadi, shuningdek motivatsiyani oshiradi va tilga nisbatan qiziqishni uyg'otadi. Analizdan ma'lum bo'ldiki, soddalashtirilgan materiallarga qaraganda autentik materiallar o'quvchilarning retseptiv ko'nikmalarini tezroq va samaraliroq shakllantiradi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ba'zi muammolar ham aniqlangan: o'quvchilarning ayrimlari uchun autentik nutqning tezligi va murakkabligi qiyinchilik tug'diradi, shuningdek o'qituvchilarda autentik materiallarni tanlash va darsga integratsiya qilish bo'yicha yetarli metodik ko'nikmalar mavjud emas.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- darslarda autentik materiallardan bosqichma-bosqich foydalanish, avval soddalashtirilgan, so'ngra tabiiy nutq materiallarini joriy etish;
- o'qituvchilar uchun seminar va treninglar tashkil etish, autentik materiallarni tanlash va darsga samarali integratsiya qilish bo'yicha ko'nikmalarni oshirish;
- tinglab tushunish faoliyatini rag'batlantiruvchi motivatsion vazifalar va topshiriqlar ishlab chiqish;
- rivojlanishni monitoring qilish uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish va o'quvchilarni individual hamda guruh bo'yicha kuzatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
2. Anderson, N. J. (1995). Listening comprehension in second language: framework, research and pedagogy. TESOL Quarterly, 29(2), 263–297.
3. Rost, M. (2011). Teaching and Researching Listening. Routledge.
4. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press.
5. Brown, H. D. (2004). Language Assessment: Principles and Classroom Practices. Longman.
6. Vandergrift, L. & Goh, C. (2012). Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. Routledge.
7. Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press.
8. Safarova, Sh. (2019). Chet tilini o'qitishda interaktiv metodlar yordamida retseptiv ko'nikmalarni shakllantirish. Pedagogika va Innovatsiyalar jurnal, 2(4), 45–52.
9. Nunan, D. (2003). Practical English Language Teaching. McGraw-Hill.
10. Vandergrift, L. (2007). Extensive listening practice and input enhancement using mobile phones: Encouraging out-of-class learning with mobile phones. TESLEJ, 11(2), 1–17.
11. Richards, J. C. & Renandya, W. A. (2002). Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice. Cambridge University Press.
12. Brown, J. D. (2001). Using Surveys in Language Programs. Cambridge University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.